

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU**  
**ILMIY**  
**XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2023  
MAXSUS SON

**НАУЧНЫЙ**  
**ВЕСТНИК.**  
**ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>Э.Б.Ягьяева</b>	
Дифференцированный метода обучения при изучении иностранного языка и организации самостоятельной работы студентов.....	114
<b>М.К.Мавлюда</b>	
O'qituvchi kompetensiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	117
<b>G.A.Asomiddinova</b>	
Qahramon xarakterini yaratishda badiiy nutq imkoniyatlari va muallif mahorati.....	120
<b>N.K.Abbasova, Z.Q.Xakimova</b>	
Speech act as an important function of communication.....	125
<b>Sh.R.Muydinov</b>	
Linguoculturological description of zoonym composite partial similarities.....	128
<b>M.Madaminova</b>	
Exploring the persuasive power of publicistic style: utilizing proverbs and sayings in english lesson.....	130
<b>Sh.M.Yusufjonova</b>	
Frazeologizmlar taqiqi.....	134
<b>Ш.И.Аскарова</b>	
К проблеме языковой интерференции и билингвизма при изучении третичного языка.....	137
<b>Ш.И.Аскарова</b>	
К вопросу трансфера и интерференции при изучении немецкого после английского языка.....	141
<b>Sh.Sh.Dadabayeva</b>	
Tarjimada so'zning kontekstdagi ma'nosini aniqlash usullari.....	148
<b>Sh.Sh.Dadabayeva</b>	
Tarjima jarayonida vaziyatning o'rganilishi.....	152
<b>Sh.Y.Usmonova</b>	
Cognitive analysis of landscape terms in uzbek and english languages.....	159
<b>Sh.Y.Usmonova</b>	
O'zbek va ingliz tillarining terminologik tizimida landshaft terminlarining o'rni.....	162
<b>Z.Sh.Pazilova</b>	
Nemis xalqida dafn marosimining o'tkazilishi.....	167
<b>Z.Sh.Pazilova</b>	
O'zbek va nemis xalqlarida to'y bilan bog'liq shaxs nomlari.....	170
<b>R.U.Axrorova</b>	
Lingvomadaniyatshunoslik: lingvokulturema va logoepistema.....	173
<b>O.O.Bobokalonov, R.U.Akhrorova</b>	
Shifonemas in phraseological units related to the period of youth.....	178
<b>R.U.Axrorova</b>	
Fransuz ertaklarida yoshga oid reprezentlarning leksik-semantik va milliy-madaniy xususiyatlari.....	182
<b>Z.M.Abdullaev</b>	
Nemis tili ismlari motivlari va ism tanlashga ta'sir etuvchi omillar.....	185
<b>Z.M.Abdullaev</b>	
Nemis tilida atoqli otlar va ularning tasnif etilishi.....	188
<b>I.R.O'rinboyev</b>	
Ba'zi na'matak ( <i>Rosa</i> ) turlarining Farg'ona shahrida tarqalishi va dorivorlik xususiyatlari.....	190
<b>I.D.Yakubov</b>	
Separator-tozalagich qurilmasining parametrlari.....	193
<b>M.Nazarov, A.T.Maxsudaxon</b>	
Javdarni jadal texnologiyada parvarishlash.....	201
<b>Ё.Г.Абдуганиев</b>	
Получение и свойства производных перфторакриловой и перфторметакриловой кислоты.....	205
<b>D.M.Ahmedova</b>	
Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.....	215

**QAHRAMON XARAKTERINI YARATISHDA BADIY NUTQ IMKONIYATLARI VA MUALLIF MAHORATI****МЕТОДЫ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ РЕЧИ В СОЗДАНИИ ХАРАКТЕРА ГЕРОЯ И МАСТЕРСТВО АВТОРА****ARTISTIC SPEECH POSSIBILITIES AND AUTHOR'S SKILLS IN CHARACTER CREATION****Asomiddinova Gulbarno Alijonovna<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti gumanitar yo'nalishlar bo'yicha chet tillari kafedrasida o'qituvchisi**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada muallif badiiy asarda xarakter yaratish masalalariga alohida urg'u beradi. Jumladan, qahramon so'zlashish usuli, nutqi, xatti-xarakati, libosi, o'zaro tavsif, o'zini ta'riflash kabi ifoda usullarini chuqur tahlilga olinadi va Stefan Sveyg va Ulug'bek Hamdam ijod asarlaridan misollar keltiriladi. Qahramon ichki dunyosi, uning hayot tarzini ochib beruvchi muhim ko'rsatkichlardan biri bu obraz nutqidir. Qahramon nima deyayotgani va qanday so'zlayotgani ham katta ahamiyatga ega. Nutq orqali qahramon millati, ijtimoiy kelib chiqishi, temperamenti, aqli, qobiliyatlari, ma'lumot darajasi haqida, uning o'zigagina xos xususiyatlar haqida bilib olamiz.*

*Muallif o'quvchi diqqat-e'tiborini nafaqat qahramon bajarayotgan ishlariga, so'zlariga, o'y-fikrlari, qalb kechinmalariga, balki ularning qay tarzda amalga oshirayotganligiga, ya'ni qahramon hulqi shakliga qaratadi. Hulq shakli deganda, qahramon ichki dunyosining tashqi belgilari: mimika, jest, so'zlash usuli, ohangi, gavda holati, libosi, soch turmagi, hattoki atir-upa, kosmetikasi tushuniladi.*

*Keltirilgan xarakter ifodasi barcha shakllari-tashqi shakllarga mansubdir. Xarakter ichki ifoda turlariga inson ichki dunyosining tahlil etish tushuniladi. Bu jarayon xarakterni psixologik tahlili deb nomlanadi. Har bir yozuvchi o'zining psixologik tahlil usuliga ega bo'ladi.*

*Yozuvchilar qahramon ichki dunyosi, xarakteri, tashqi ko'rinishiing ta'rifida turli xil usullardan foydalanadi. Ular qay bir usulni afzal ko'rishliklari muallifning yozish uslubi, asar g'oyasi, janri, zamon talab etayotgan mezonlar va ko'plab boshqa omillarga bog'liq.*

**Аннотация**

*В данной статье автор акцентирует внимание на вопросах создания персонажа в художественном произведении. В частности, подробно анализируются манера речи, речь, поведение, одежда, взаимное описание, самописание персонажей и т. д., приводятся примеры из творчества Стефана Цвейга и Улугбека Хамдама. Одним из важных показателей, раскрывающих внутренний мир героя, его образ жизни, является речь персонажа. Важно также то, что говорит герой и как он говорит. Через речь мы узнаем о национальности героя, социальном происхождении, темпераменте, интеллекте, способностях, уровне образования, о его уникальных особенностях.*

*Автор обращает внимание читателя не только на поступки, слова, мысли и чувства героя, но и на то, как он это делает, то есть на форму поведения героя. Под формой поведения героя подразумеваются внешние признаки внутреннего мира героя: мимика, жесты, манера говорить, тон, поза, одежда, прическа, даже духи и косметика.*

*Под анализом внутреннего мира человека понимаются виды внутреннего выражения характера. Этот процесс называется психологическим анализом характера. У каждого писателя свой метод психологического анализа.*

*Писатели используют разные методы для описания внутреннего мира, характера и внешности персонажа. Какой метод они предпочитают, зависит от стиля автора, идеи произведения, жанра, критериев, требуемых временем, и многих других факторов.*

**Abstract**

*In this article, the author emphasizes the issues of creating a character in a work of art. In particular, the character's way of speaking, speech, behavior, clothes, mutual description, self-description, etc., are analyzed in depth, and examples from the creative works of Stefan Zweig and Ulugbek Hamdam are given. One of the important indicators that reveal the inner world of the hero, his way of life, is the character's speech. What the hero says and how he says it is also important. Through the speech, we learn about the hero's nationality, social background, temperament, intelligence, abilities, level of education, about his unique characteristics.*

*The author draws the reader's attention not only to the actions, words, thoughts, and feelings of the hero, but also to how they do it, that is, to the character of the hero. The character form means external signs of the hero's inner world: facial expressions, gestures, manner of speaking, tone, posture, clothes, hairstyle, even perfume and cosmetics.*

*Writers use different methods to describe the character's inner world, character, and appearance. Which method they prefer depends on the author's writing style, the idea of the work, the genre, the criteria required by the time, and many other factors.*

**Kalit so'zlar:** obraz nutqi, hatti-harakatlar, portret tasviri, xarakter xususiyatlari, hulq shakli, tasnif, ruhiy holat.

## KIRISH

Qahramon ichki dunyosi, uning hayot tarzini ochib beruvchi muhim ko'rsatkichlardan biri bu obraz nutqidir. Qahramon nima deyayotgani va qanday so'zlayotgani ham katta ahamiyatga ega. Nutq orqali qahramon millati, ijtimoiy kelib chiqishi, temperamenti, aqli, qobiliyatlari, ma'lumot darajasi haqida, uning o'zigagina xos xususiyatlar haqida bilib olamiz. Yozuvchi qahramonga individual nutq, so'zlashish usulini ham taqdim etadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Stefan Sveygning "Yondirguvchi tilsimot" asarida xonim o'spirin o'g'li bilan o'zaro suhbatda shunday satrlarga guvoh bo'lamiz: "-Sois sage, Edgar!Assieds-toi(garchi bu tilda xonim risoladagidek gapira olmasa-da, bu bola bilan har doim fransuzcha so'zlashar, hatto, ayrim murakkab iboralarga uning tili yaxshi aylanmay qolardi" (O'zingni to'g'ri tut, Edgar, o'tir joyingga!)(frans. ) [1]

Yuqoridagi matnda Stefan Sveyg xonimni o'zini kiborlar jamiyatidan ekanligini ko'rsatmoqchi ekanligini shu birgina ibora orqali ifodalab beradi. Chunki fransuz tilida o'z vaqtida "oq suyak" aslzodalar gapirishi mumkin edi. Obraz replikasida aynan fransuz tilidan jumla keltirilishi uning asl nasabi haqida ma'lumot berdi. Ulug'bek Hamdamning "Ota"romanida asardagi salbiy qahramon Erboyning Yog'du bilan avtobusda bo'lib o'tgan tortishuvida Erboyning qalbida Po'latga nisbatan bo'lgan nafrati, Yog'duga bo'lgan qasosi o'z ifodasini topadi, shu nutq orqali yozuvchi uni qanchalik razil odam ekanligini ko'rsatadi: "- Hormasinlar endi, Yog'duxon, o'zlarimi?. – qulog'ining ostida yangragan tanish, ayni damda, begona erkak kishining ovozidan cho'chib tushgan ayol yalt etib yoniga qaradi. Qarab, yuziga " Hap, qo'lga tushdingmi?" degandek irshayib boqib turgan maktabdoshi – Erboyni ko'rdi. "[2]

Yuqoridagi parchadan ko'rinib turibdiki, qahramon xarakteri nafaqat uning nutqida, balki uning hatti-harakatlarida ham namoyon bo'ladi. Erboyning "ayolga surbetlarcha yaqinroq surilishi", "ilondek vishillashi", " vajohat bilan gapirishi" uning xarakteri haqida bir muncha tasavvur hosil qiladi.

Demak, portret tasvirlashda bir vaqtning o'zida obrazning ruhiy holati ham berilishi kuzatiladi. Erboyning xarakteridagi salbiy jihatlar uning nutqi orqali, berilgan birinchi replikasida ham yaqqol ko'ringan edi." Hormasinlar endi, Yog'duxon, o'zlarimi?." – luqmasidagi "lar" ko'pqlik qo'shimchasini noo'rin qo'llanishi birinchi so'z tarkibida kuchaytiish, ikkinchi so'z tarkibida esa kesatiq ma'nosida keladi.

Yog'duning "sapchib turib ketishi", "ko'zlaridan yosh sachrab" kabi izohlar va avtobusdan tushib ketish uni qanchalik pok, vafoli, or-nomusli ayol ekanligidan dalolat beradi.

Demak, qahramon xarakterining ifoda usullaridan yana biri hatti-harakati ifodasidir. Inson ma'naviy olami, dunyoqarashini uning bajarayotgan ishlarini ko'rib , bilib mushohada yuritamiz. Ayniqsa, inson taqdirida chigal vaziyatlar, murakkab ziddiyatlarga duch kelib qolganida uning xarakter xususiyatlari aniq ko'rina boshlaydi. Kundalik hayotidagi qahramon o'zini tutishi ham bu yerda nazardan chetda qolmasligi kerak. Stefan Sveygning "Vahima" nomli novellasida Irena xonim bir notanish ayol tomonidan tahdidga olinadi. U ayol har kun, kun ora Irenadan pul undiradi. Evaziga Irenaning hiyonatini sir tutishi kerak bo'ladi. Notanish ayolning talablari tobora kuchayib boradi va bergani puli qolmagan Irena ayol so'ragan nikoh uzugigacha yechib beradi. Irena erining oldida siri fosh bo'lib qolishidan shunchalik qattiq vahimaga tushadiki, hatto o'z joniga qasd qilmoqchi ham bo'ladi. Irenaning to'kin-sochin hayotidan zavq olib , shukur qilib yashamasdan, hiyonat ko'chasiga kirib qolib vahimaga tushib qolganini yozuvchi to'laqonli tasvirlab beradi: "Irena jerkib tashlamoqchi edi, shu payt ko'cha eshigi taraqlaganini eshitib, qo'rqqanidan tomirlarida qoni to'xtab qoldi. Demak, eri idorasidan qaytib kelibdi. U shosha-pisha barmog'idan uzugini chiqardi-da, muttahamning qo'lga tutqazdi, u esa darrov berkitdi. "[3]

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Muallif o'quvchi diqqat-e'tiborini nafaqat qahramon bajarayotgan ishlariga, so'zlariga, o'y-fikrlari, qalb kechinmalariga, balki ularning qay tarzda amalga oshirayotganligiga, ya'ni qahramon hulqi shakliga qaratadi. Hulq shakli deganda, qahramon ichki dunyosining tashqi belgilari: mimika, jest, so'zlash usuli, ohangi, gavda holati, libosi, soch turmagi, hattoki atir-upa, kosmetikasi

tushuniladi. Hulq-atvor shaklida biz qahramon xarakteridagi tashqi tafsilotlarni emas, balki bir butun yaxlitlikni mukammal ifodasini ko'ramiz. Yana yuqoridagi asar matniga murojaat etamiz: "Mana bugun Irena ikkinchi marta o'z hayajonini sezdirib qo'ydi. U seskanib, o'rnidan turdi, shlyapasini yechish uchun oromgohga kirdi, ko'zgu oldida ko'zlaridagi hayajon yo'qolib, o'ziga kelgunicha turib qoldi. Keyin yemakxonaga qaytib kirdi." [4]

Ulug'bek Hamdamning "Isyon va itoat" asaridan olingan quyidagi parchada ham muallif asar qahramoni Akbarning egnidagi libosi qahramonni o'zini ichki nutqi orqali tasvirlanadi: "Sarsor solsa, kiyim-kechakni maktabga moslab sotib olmagan ekan: egnida tim qora charm kurtka, uning ostidan bo'ynini g'ippa bo'g'gan qizg'ish jemper, shimi ham, tovonni balandgina tuflisi ham shu tobda rosa rusum bo'lgan toza xilidan, yana qop-qora. . . Birdan hijolat tortib ketdi." [5]

Inson tashqi qiyofasi ham u haqida bir qancha ma'lumot bera olishi yuqorida keltirilgan parchada fikrimizga isbot bo'la oladi.

Xarakter tasnifi turlaridan muallif xarakteristikasida hikoyachi to'g'ridan-to'g'ri obrazga ta'rif berishi mumkin. Muallif xarakter ifodasida nafaqat portret, xatti-harakat, kechinmalar orqali, balki o'z nomidan ham so'zlab, munosabatini oshkora bildirishi mumkin. "Ha, Farida shunaqa, o'zining so'zi bilan aytganda "realist" edi. Eri bilan birga bo'lish istagi qanchalik uni qiynayotgan bo'lmasin, baribir, hech narsani o'zgartirmay turganing bosh sababi ham uning ana shunday "realist" dunyoqarashidan kelib chiqayotgandi." [6] "Isyon va itoat" romanidagi ushbu parchada muallif Akbarning rafiqasi Faridaning xarakteriga shu qisqagina tasnif orqali chizgi berib o'tmoqda. Ulug'bek Hamdam ijodiga xos jihat bu qahramon xarakterini qisqa satrlar orqali ifodalashdir yoki umuman qahramon xakteri xaqida umuman so'z aytmaslik, ya'ni yozuvchi hulosa qilishni o'quvchini o'ziga tashlab qo'yadi, mushohada qilishga undaydi. Stefan Sveygning "Yondirguvchi tilsimot" nomli novellasida baronga nisbatan berilgan tasnifga diqqatimizni qaratsak: "Garchi unga asl iqtidor nasib etmagan bo'lsa-da, u tabiatan ulfatchilikni xush ko'radiganlardan edi, odatda bundaylarning har qanday davrada paydo bo'lishi yaxshigina qarshi olinadi va uning o'zini ham yolg'izlikka umuman hushi yo'qligi shundoqqina ma'lum edi." [7] Ulug'bek Hamdam asarlaridan farqli o'laroq Stefan Sveyg asarlarida qahramon xakteriga batafsil to'xtalish xollari ko'p kuzatiladi. Va yuqorida keltirilgan parcha fikrimizga isbot bo'la oladi. Ba'zida badiiy asarda qahramon o'zi haqida o'zi ham hikoya qiladi. Bunday xol adabiyotda o'z-o'ziga tavsif berish deyiladi. "Meni nima jin urgan ekan, Po'lat, haligacha bilmayman. Nega bunday qildim, nega seni ta'qib qildim, nega uyingga o't qo'ydim, nega seniyam, o'zimniyam hayotimni do'zaxga aylantirdim, sira tushunmayman! Ichimda bir alamzadalik bor edi, hammasiga o'sha sababchimi, deyman! Lekin qani endi o'sha alamzadalik? Qani?" [8] O'z-o'ziga tavsif berish Stefan Sveygning ko'plab asarlarida ham uchratish mumkin. Misol tariqasida "Amok" novellasida chuqur iztirobda qolgan shifokor nutqidan parcha keltira olamiz:

"...Bilmadim, avvallari ozgina bo'lsa-da, yaxshi odam bo'lganmanmi, yo'qmi, ammo ishonchim komil, men doim odamlarga jon deb yordam berganman. U yerdagi daydi hayotimda bu narsa, ya'ni bir siqimgina ilmni miyamga joylab olib, kimningdir hayotini saqlab qolish, men uchun o'ziga xos baxt sanalardi, o'zimni Xudo deb bilardim..." [9] Qachonlardir bu qahramon ham hayotga insonlarga faqat yaxshilik qilish istagida bo'lganini, lekin bir baxtsiz hodisa tufayli – bir ayolga vaqtida yordam ko'rsata olmaganidan vijdon azobida qolgani va bunga nafaqat u, balki boshqa omillar ta'sir etgani va fojeali yakun topgani shifokorni chuqur qayg'uga botganini payqash qiyin emas. Bir shaxsning boshqa bir shaxsga nisbatan bergan tavsifi, ya'ni o'zaro tavsif ham badiiy asarlarda ko'plab uchraydigan hodisadir. Biroq bir odamga boshqa– boshqa odamlar tomonidan berilgan tavsiflar ham turlicha bo'ladi, ya'ni real hayotda bo'lgani kabi badiiy asarlarda ham bir personaj haqida boshqa personajlarning fikri turlicha bo'ladi. Ulug'bek Hamdamning "Isyon va itoat" romaning bosh qahramoni Akbarga uning ayoli Farida tomonidan va ma'shuqasi Diana tomonidan berilgan ikki xil tavsifni keltiramiz: "Nosirjon eshikni yopgandan keyin Farida ichi sidirilib Akbarni o'ylay ketdi: "U ham shu Nosirjonning biri, hatto bundan beshbattar xayolparast. Oilali, bola-chaqali odamga pishirib qo'yibdimi begona yurtlarda? Insonlikni ma'nisini izlab yurganmish. Axir ikkita bolangni tarbiyalab el qatoriga qo'shishda emasmi o'sha zormonda ma'no!..." [10] Ma'shuqasi Dianani Akbarga nisbatan o'y – fikrlari esa o'zgacha: "Tirkishdan Akbarga ko'zi tushgani zahoti eshikni ochgan Diana bularning hammasini o'z ko'zi bilan ko'rib, hayratlanib qolgandi. U Akbardek chiroyli erkakdan bunday harkatni-jasoratni, qat'iyatni, dovyuraklikni kutmagandi." [11]

Demak, bir inson boshqa inson tomonidan ta'riflanganda, ta'rif berayotgan inson bilan o'zaro munosabati katta ahamiyatga ega. Har bir shaxs boshqa bir shaxsning o'z fikrlash

doirasidan, unga qiligan muomalasidan, xatti–xarakatlaridan u inson haqida fikrga keladi. Ba’zida asarda personaj xarakteridagi alohida o’ziga xos jihatni muallif qahramon ismi orqali ta’riflaydi va bu hodisa adabiyotda “xarakterlovchi ism” yoki “xarakterlovchi familiya” deyiladi. Ulug’bek Hamdamning “Ota” romanida Toshkentlik azayimxon domlaga Po’lat kinoya ila “Ma’bud” deb nom qo’yib qo’yadi. “Ana azayimxonu mana azayimxon! Hind xalqining “Maxabxorat” idagi ma’budlardan biri Chilonzorga ko’chib kelib yashayaptimi, devoradi salgina kitob ko’rgan odam bo’lsa! Kelbatmisan kelbat, viqormisan viqor, soqolmisan soqol...hammasi shu kishida jam edi. Yuzidan yog’ilgan nurni aytmysizmi, nurni! Kunduzi quyosh, kechasi oy uyaladi-ya!.. Ha, azayimxonga ko’zi tushishi bilan Po’latning ko’nglidan negadir “ma’bud” degan so’z kechdi.” [12] Bundan tashqari, adibning “Isyon va itoat” romanida tabib, Tursunboy –jontalash (hayotning mazmuni faqat tunu-kun ishlashda deb biladigan, shuning uchun shunday laqab olgan) kabi ismlari kasb-korini bildiradigan qahramonlar ham bor.

Stefan Sveyg ijodida qator biografik romanlar ham mavjud bo’lib, ular tarixda o’z nomini qoldirgan buyuk shaxslardir: Jumladan, “E.Vernxarn haqidagi xotiralar”, “Balzak”, “Dikkens”, “Marselina Debord Valmor”, “Jozef Fushe”, “Magellan”, “Amerigo” shular jumlasidandir. Lekin hali o’zbek tiliga tarjima qilinmagan “Leporella” novellasida asli ismi Kreschensa bo’lgan ayolning laqabi ekanligini asar mutoalasi davomida bilib olamiz. Keltirilgan xarakter ifodasi barcha shakllari-tashqi shakllarga mansubdir. Xarakter ichki ifoda turlariga inson ichki dunyosining tahlil etish tushuniladi. Bu jarayon xarakterni psixologik tahlili deb nomlanadi. Har bir yozuvchi o’zining psixologik tahlil usuliga ega bo’ladi. Bunda ichki monolog va dialoglarni alohida o’rni bor. Monolog – bu qahramonning o’ziga, boshqa bir personajga yoki o’quvchiga qarata aytilgan, lekin javobi kutilmaydigan ichki nutq turiga aytiladi. Monologlar ko’proq dramatik asarlarda uchraydi va bunda qahramon qalbida ro’y berayotgan o’y-xayollar, taassurotlar, hissiyotlar oqimi diqqatni tortadi. Ulug’bek Hamdamning “Alvido, azizim daraxt!” nomli hikoyasi monolog tarzida bayon etilgan, ya’ni qahramon o’ziga qadrlil bo’lib qolgan daraxtga qarata aytilgan qalb so’zlarida ko’ramiz: “Ichimda, ruhimda bir ehtiyoj borki, ismi sobitlikdir. Men hamisha shuni istayman. Do’stim bo’lsa, bir umr yonimda tursa, yorim bo’lsa, o’limdan o’zga sabab bizni ayirmasa, deymen. Lekin negadir odamlardan omadim chopmaganmi, bilmadim, bir qaragam, do’stim raqibga, yorim esa begonaga aylanib qolayotgandek tuyulaveradi. Boshqa bir payt qaragam esa, oshirib yuborayotgandek bo’laveraman. Lekin sen! Senga qachon, qanday kayfiyat bilan qaragam ham o’sha-o’shasan, o’zgarmassan, sobitsan!.. Men sening mana shu muqimligingga ta’zim qilaman! Boshim egilib yerga yetguncha ta’zim qilaman, ey daraxt!!!” [13] Stefan Sveygning “Kuygan ko’ngil faryodi” novellasida ham ichki monologning obraz nutqida uchramiz. Otaning qayg’u-alamlari uning ichki monologida yozuvchi tomonidan mahorat bilan tasvirlangan. Novella davomida qariya dilida jo’sh urayotgan g’alayonlarni aytishga o’zida jur’at topolmay, aksincha o’z ichida mulohazalar yuritadi. Uning monologlari shu qadar ta’sirli bayon etilganki, beixtiyor qariyaga nisbatdan o’quvchida rahm to’yg’usi paydo bo’ladi. Bu yozuvchining badiiy mahoratidan darak beradi: “Baxtiyor bo’lish emish, – chol og’irlashib ketgan boshini alam bilan chayqab qo’ydi.” [14] Dialog obrazlar o’rtasidagi o’zaro suhbat bo’lib, asar syujetida qahramon xakteri shakllanishida ko’maklashadi. Stefan Sveygning “Kuygan ko’ngil faryodi” nomli novellasidagi chol bilan ayoli o’rtasidagi dialogda ayolning naqadar xudbin, eriga nisbatan befarq, erini odam o’rnida ko’rmaydigan, o’yin-kulguga berilgan ayol sifatida ko’ramiz. Eng achinarlisi qizining ham tarbiyasi buzilib borayotgani. Ona qiziga namuna bo’lmasdan, yosh yigitlar davrasida kayf-safo qilib yuradi. Ota ularni bu davradan olib ketmoqchi bo’ladi, lekin ayoli bu taklifga qarshi chiqadi: “Xotini qoshini chimirgancha undan gap kutar, chol esa muallim qarshisida turgan o’quvchiday gapirishga jur’at etolmasdi. – Nima gap? – so’radi xotini nihoyat.

– Men xohlamayman, xohlamayman, – deb g’uldiradi chol ovozi titrab. – Men. . . men. . . bu odamlar bilan gaplashishlaringni xohlamayman. . .” [15]

Ko’plab yozuvchilar xarakter ifodasining ichki usullaridan biri –bu personaj nuqtai-nazaridan ifoda etilgan, lekin muallif tomonidan bayon etilgan fikrlar, nutq tushuniladi. (nesobstvenno pryamaya rech –o’ziniki bo’lmagan nutq, ya’ni o’zganing nutqi) Bu usulda yozuvchi qahramon ruhiga “ko’chib” o’tib, qahramon his-tuyg’ularini ko’p hollarda so’roq va undov gaplar orqali ifoda etadi. Bunga misol qilib Ulug’bek Hamdamning “Ota” romanidan quyidagi misolni keltiramiz. “Eh, qani endi ko’ngliga ish sig’sa! Sig’mayapti-da! Nima qilsin?.. Hayotda u uchun hammasi bir tomonu Yog’du bir tomon ekan. Yog’dusiz Po’latning yurak-bag’ri huvillab qoldi. Ko’nglini Yog’du to’ldirib turgan ekan. Borligida bilinmagan, sezilmagandi, endi bo’lsa. . . Xuddi ko’krak qafasining

qayeridadir bir teshik boru undan tinmay izg'irin kirib, yuragining ich-ichidagi iliq tuyg'ularini birin-sirin muzlatib bitirayotgandek tuyilardi. "[16] Bunday jarayon Stefan Sveyg novellalarida ham kuzatiladi. Jumladan "Vahima" nomli novellasida Irena xonimning ichki nutqida: "Irena nihoyatda qo'rqib ketdi. Yalt etib erining qo'liga qaradi: yo'q, pichoq ko'rinmaydi. Uni ezgan bosiriq, xira tush manzaralari tumanday asta tarqala boshladi. Demak, bularning hammasini u tushida ko'riпти-da, u tushida chinqirib, erini ham uyg'otib yuboripti-da. Biroq nega eri unga teshib yuborguday tikilib turipti?"[17]

### XULOSA

Keltirilgan barcha usullar orqali mualliflar qahramon ruhiyatida kechayotgan turli hil o'y – kechinmalarni o'quvchiga to'laqonli yetkazish uchun va ta'sirni kuchaytirish maqsadida mohirona foydalanganlar.

Qahramon dunyoqarashi va g'oyalarini tasvirlash orqali ham badiiy xarakter qirralarini ko'rsatish mumkin. Bu usulda qahramon hayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy, siyosiy kurashlar tasvirlanadi. Qahramon biografiyasi, tushlari, kundaliklari, maktublari kabi shaxsiy xujjatlar qahramon xarakteriga yana ham aniqlik kiritib beradi. Yozuvchilar qahramon ichki dunyosi, xarakteri, tashqi ko'rinishiing ta'rifida turli xil usullardan foydalanadi. Ular qay bir usulni afzal ko'rishliklari muallifning yozish uslubi, asar g'oyasi, janri, zamon talab etayotgan mezonlar va ko'plab boshqa omillarga bog'liq.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tsveyg S. Ayol hayotidan yigirma to'rt soat. –T.: O'zbekiston. 2013. –25,8,250 b.
2. Hamdam U. Isyon va itoat. – Toshkent. Yangi asr avlodi. 2018. –25,90,117,169 b.
3. Tsveyg S. Kuygan ko'ngil faryodi. – Toshkent. Yangi asr avlodi. 2016. –67,28,47,229,47 b.
4. Hamdam U. Ota. – Toshkent . Yangi asr avlodi, 2020. –70,169,13,67 b.
5. Alijonovna, A. G. (2022). DISTINCTIVE FEATURES OF STORIES BY STEFAN ZWEIG. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 2, 88-94.
6. Alijonovna, A. G. (2022). PECULIARITIES OF STEFAN ZWEIG'S WORKS. *Confrencea*, 3(3), 91-94.
7. Alijonovna, A. G. (2022). INTERPRETATION OF THE IMAGE OF WOMEN IN S. ZWEIG'S SHORT STORIES" THE LETTER OF AN UNKNOWN WOMAN" AND" 24 HOURS OF A WOMAN'S LIFE". *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 3, 39-46.
8. Alijonovna, A. G. (2023). S. TSVAYG "AMOK" NOVELLASIDA O 'ZLASHGAN SO 'ZLARNING O 'RNI VA FUNKSIYASI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(5), 420-424.
9. Alijonovna, A. G. (2022). THE IMAGE OF THE NARRATOR IN ZWEIG'S NOVEL" STREET IN THE MOONLIGHT". *Confrencea*, 3(3), 116-118.
10. Rustamova, I., & Asomiddinova, G. (2022). THE ISSUE OF CREATING CHARACTER IN ARTISTIC CREATION. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 133-139.
11. Alijonovna, A. G. (2022). INTERPRETATION OF THE IMAGE OF WOMEN IN S. ZWEIG'S SHORT STORIES" THE LETTER OF AN UNKNOWN WOMAN" AND" 24 HOURS OF A WOMAN'S LIFE". *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 3, 39-46.
12. Asomiddinova, G. (2022). УЛУҒБЕК ҲАМДАМ "ОТА" РОМАНИДА ҚАХРАМОН ОБРАЗИТАЛҚИНИДА МИЛЛИЙ ДЕТАЛЛАР ВА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР ИФОДАСИ. *Science and innovation*, 1(В7), 406-409.
13. Asomiddinova, G. (2022). СТЕФАН ЦВАЙГ НОВЕЛЛАЛАРИДА ИНСОН РУҲИЙ ОЛАМИНИНГ ТАЛҚИНИ ("АЁЛ ҲАЁТИДАН ЙИГИРМА ТҮРТ СОАТ" НОВЕЛЛАСИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, 1(В6), 488-491.
14. Alijonovna, A. G. (2022). DISTINCTIVE FEATURES OF STORIES BY STEFAN ZWEIG. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 2, 88-94.
15. Asomiddinova, G. (2022). СТЕФАН ЦВАЙГ НОВЕЛЛАЛАРИДА ИНСОН РУҲИЙ ОЛАМИНИНГ ТАЛҚИНИ ("АЁЛ ҲАЁТИДАН ЙИГИРМА ТҮРТ СОАТ" НОВЕЛЛАСИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, 1(В6), 488-491.
16. Abdiloyev, S. O. (2023). Phraseologies In German Related To Animal Wildlife. *PERFECT EDUCATION FAIRY*, 1(1), 29-35.
17. Oxonjonovich, A. S. (2023). NEMIS TILIDA HAYVONOT DUNYOSI BILAN BOG'LIQ BO'LGAN FRAZELOGIZMLAR. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(11), 1-4.
18. Abdullayev, S. (2022). ACHIEVING THE RICHNESS OF ORAL AND WRITTEN SPEECH WHEN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(06), 34-39.
19. Qayumjonovich, A. O., & Bahodirovna, A. F. (2023). ORONIMLARNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 2(14), 136-140.
20. Abbozov, O. Q. (2021). General properties of oronyms. *ISJ Theoretical & Applied Science*, (12), 389-391.
21. Qayumjonovich, A. O. (2023). In Particular of the Formation of the Oronyms. *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599)*, 1(10), 13-17